3. Современные методы диагностики, хирургической стратегии и послеоперационного ухода значительно повысили эффективность лечения пациентов с острой спаечной кишечной непроходимостью. Общая смертность снизилась до 4,5%, а частота послеоперационных осложнений составила 6,7%.

### **Литература.**

1. Dillman, Jonathan R., et al. "CT findings of small-bowel obstruction: implications for clinical management." *American Journal of Roentgenology* 212.1 (2019): 104-111.
2. Patel, Rajan, et al. "Magnetic resonance enterography in small bowel Crohn's disease: a review." *Gastroenterology Research and Practice* 2016 (2016).
3. Ballard, David H., et al. "Evaluation of bowel obstruction with helical CT: a pattern approach." *Radiographics* 20.4 (2000): 1169-1185.
4. Patino, Manuel, et al. "Acute small bowel obstruction: a comprehensive review." *Emergency Medicine International* 2019 (2019).
5. Асланов В. Г., Хужабаев С. Т. Возможности радиологических методов в диагностике острой спаечной тонкокишечной непроходимости // Молодые ученые. – 2024. – Т. 2. – №. 18. – С. 138-139.
6. Utayev L. H. et al. Clinical Features of Impinged Ventral Hernias Complicated by Intestinal Obstruction // *World Bulletin of Public Health*. – 2024. – Т. 36. – С. 13-17.
7. Асланов В. Г., Хужабаев С. Т. Индивидуализированный подход к хирургическому лечению острой спаечной тонкокишечной непроходимости // Молодые ученые. – 2024. – Т. 2. – №. 18. – С. 140-141.
8. Хужабаев S. T. et al. Disorders of the hemostasis system in the stage of burn shock in patients with burn injuries. – 2023.
9. Утаев Л. Х., Дусияров М. М., Хужабаев С. Т. Анализ влияния ущемления грыжи на развитие синдрома острой энтеральной недостаточности и повышенного внутрибрюшного давления (обзор литературы) // *Евразийский журнал технологий и инноваций*. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 25-30.

УДК 615.03:616.36-002(075)

## ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ СТАЦИОНАРЛАРИДА ҚЎЛЛАНИЛГАН ГЕПАТОПРОТЕКТОРЛАРНИНГ ФАРМАКОЭПИДЕМИОЛОГИЯСИ

**Бекчанова Юлдузхон Хайитбоевна**

Тошкент тиббиёт академияси, Урганч филиали фармакология ва клиник  
фармакология кафедраси катта ўқитувчиси, PhD. Хоразм, Ўзбекистон

E-mail: [bekchanovayulduz80@gmail.com](mailto:bekchanovayulduz80@gmail.com)

**Ахмедова Назакат Маримбаевна**

Тошкент тиббиёт академияси, Урганч филиали фармакология ва клиник  
фармакология кафедраси ассистенти, Хоразм, Ўзбекистон

E-mail: [nazakat.akhmedova@list.ru](mailto:nazakat.akhmedova@list.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12789964>

**Аннотация.** Гепатобилиар тизим касаллиги билан даволанган 500 беморнинг касаллик тарихи ўрганилди. Фармакоэпидемиологик усуллар ёрдамида (касаллик тарихидан анкета маълумотларини йиғиш йўли билан) ретроспектив (2005йилдан 2010 йилгача) тарзда беморларнинг касаллик тарихи ўрганилди. Анкетага Ўзбекистонда амалий тиббиётда ишлатилиб келинаётган 36 тадан ортиқ препарат киритилди. Ўтказилаётган терапияда гепатопротекторларнинг қўлланилганлиги, уларнинг эффективлиги ва хавфсизлигига катта эътибор қаратилди. Ҳамма маълумотлар статистик таҳлил қилинди.

Ўрганиш натижасида олинган маълумотларга кўра 36 та гепатопротекторлардан 18 таси қўлланилган, қолган 18 таси стационарлардаги беморларни даволашда умуман қўлланилмаган. Шундай бўлишига қарамадан врачлар касалликни даволашда яхши натижага эришишган.

**Калит сўзлари:** Жигар сурункали касалликлари, жигар циррози, фармакоэпидемиология, гепатопротекторлар.

## ФАРМАКОЭПИДЕМИОЛОГИЯ ГЕПАТОПРОТЕКТОРОВ, ПРИМЕНЯЕМЫХ В ЛЕЧЕБНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

**Аннотация.** Изучены истории болезни 500 пациентов, лечившихся по поводу заболеваний гепатобилиарной системы. С помощью фармакоэпидемиологических методов (путем сбора анкетных данных из анамнеза заболевания) ретроспективно (с 2005 по 2010 гг.) изучен анамнез больных. В проводимой терапии большое внимание уделялось сочетанному применению гепатопротекторов, их эффективности и безопасности. Все данные были статистически проанализированы.

На основе полученных данных выявлено, что в Хорезмской области из 36 изученных гепатопротекторов применялись 18, а остальные 18 вообще не применялись при лечении стационарных больных. Несмотря на это, врачи добились хорошего результата в лечении заболевания.

**Ключевые слова:** Хронические заболевания печени, цирроз печени, фармакоэпидемиология, гепатопротекторы.

## A PHARMACOEPIDEMOLOGICAL STUDY OF HEPATOPROTECTORS APPLIED IN HOSPITALS OF KHORAZM REGION

**Abstract.** The following section presents an abstract background to the subject matter under discussion. A total of 500 case histories of patients diagnosed with diseases of the hepatobiliary system were analysed. A pharmacoepidemiological approach was employed to retrospectively examine the medical histories of the patients in question, utilising data collected from questionnaires pertaining to their disease history. The period under review spanned from 2005 to 2010. In the course of the conducted therapy, considerable attention was devoted to the combined use of hepatoprotectors, their efficacy, and their safety. All data were subjected to statistical analysis.

The data obtained revealed that 18 of the 36 hepatoprotectors studied were used in the Khorezm region, while the remaining 18 were not used at all in the treatment of inpatients. Notwithstanding the aforementioned limitations, the medical practitioners in question were able to achieve a favourable outcome in the treatment of the disease.

**Keywords:** Chronic liver diseases, liver cirrhosis, pharmacoepidemiology, hepatoprotectors..

### КИРИШ

Жигар циррози келиб чиқиш сабабларидан қатъий назар, жигар шикастланишига олиб келадиган барча прогрессив касалликларнинг якуний босқичи ҳисобланади. Бунда жигар циррозининг муҳим хусусияти ушбу касалликда клиник-лаборатор кўрсаткичларнинг ўзгарувчанлиги бўлиб, бу ҳолат клиник белгилар юзага чиқмаган беморларда ҳам (10-20 фоиз) ва ҳаёт учун хавфли асоратлар бўлган беморларда ҳам ташҳиснинг тўғрилигини баҳолашга имкон беради [1,2,8]. Жигар циррози жуда ҳам кенг тарқалган ҳасталик бўлиб, аёлларга қараганда кўпроқ эркакларда учрайди. У беморлар ҳаёти сифатининг ёмонлашишига, эрта ногиронликка ва ўлимга олиб келади [7, 13].

Кейинги йилларда гепатобилиар тизим касалликлари турли соҳадаги шифокорларнинг эътиборини тобора кўпроқ жалб этмоқда. Бу ҳам сурункали гепатитнинг кенг тарқалганлиги, ҳам гепатитнинг сўнгги босқичи сифатида жигар циррозидан ўлим даражасининг юқори эканлиги билан узвий боғлиқдир [9,10,11,14]. Касалликнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти меҳнатга лаёқатли одамлар орасида жигар циррозининг кўпроқ тарқалганлиги билан ҳам белгиланади. Бундан ташқари, жигар циррозини даволаш мураккаб вазифа бўлиб, уни амалга ошириш катта моддий харажатларни талаб этади [12,15].

Жигарга таъсир этувчи патогенетик механизмларнинг хилма-хиллигига қарамай, унинг зарарланиш жараёнининг ривожланиши ва хронизацияси орган тўқималарида кўп жиҳатдан бир хил типдаги эволюцион жиҳатдан бардошли, бир томонлама таркибий ўзгаришлар билан бирга тизимли кечади. Турли хил этиологик омиллар таъсирида ишга тушиб кетадиган триггерли механизмлар аъзо тўқималарининг турли оғирликдаги некротик яллиғланиш реакциясининг ривожланишига олиб келади [8,15].

Яллиғланиш ривожланишининг маълум босқичида ҳужайра инфилтрацияси ва дистрофияси жараёнларига экстрацеллюляр матрикс таркибий қисмларининг синтезини бошловчи жигар фибробластларининг фаоллашиш компонентлари ҳам кўшилади. Фиброгенез жараёнларининг фаоллашиши яллиғланиш белгиларининг пасайиши билан бирга кечади ва жигарнинг бириктирувчи тўқимали тузилишининг бузилишига олиб келади, бу асосан жигар паренхимаси кейинги тикланиш жараёнининг сохта лобулалар ва



охир-оқибат жигар циррози ривожланиши билан кечувчи функционал номутаносиблигини белгилайди [7,16]. Терининг геморрагик белгилари (кўкаришлар, тери остига қон қуйилишлар), ҳар хил локализацияли қон кетишлар (бурун, қизилўнғач, ошқозон-ичак, буйрак) ушбу касаллик клиник манзарасини тўлдиради [2,8,14].

Текширувда кўпинча терининг ва шиллиқ пардаларнинг иктерик рангининг турли даражадаги ўзгарганлиги, терининг қашланиш излари, лаблар чегарасининг ёрқин қизил ранга кириши, тилнинг қирмизи (жигар) ранги, танадаги жунларнинг камайиши, эркакларда сут безларининг бироз катталашганлиги (геникомастия) аниқланади. Юлдузча ва ўргимчак тўри шаклидаги теридаги геморрагик белгилар ва ўзига хос қон томир шаклланишлари (телангиоэктазия), кафтларнинг қизариши (палмар эритемаси), жигарнинг катталашishi, баъзан эса пальпация пайтида унинг оғриқли эканлиги кузатилиши мумкин. Цирроз ривожланиб бориши билан жигар зичлашади ва ғадир-будирлашади, қорин бўшлиғида суюқлик (асцит) пайдо бўлиши сабабли қорин ҳажми катталашади, қориннинг олд ва ён деворларида кенгайган томирлар кўринади, талоқ катталашади ва оёқлар шишади [8,13]. Ушбу белгиларнинг йиғиндиси қизилўнғач, ошқозон ва ичакнинг варикоз томирларидан қон кетиши билан биргаликда портал гипертензия синдромини ҳосил қилади. Кўпинча бемор тана вазнининг камайиши (ориклаб қолиши), баъзан эса кахексия даражасигача етиши қайд этилади [3,4,5,6].

Ҳозирги шароитда, турли хил клиник-фармакологик гуруҳлардан гепатотроп препаратларни қўллашнинг иқтисодий мақсадга мувофиқлигини, уларнинг клиник амалиётда кенг тарқалишини, шунингдек уларнинг терапевтик самарадорлиги ва хавфсизлигини ҳисобга олган ҳолда таҳлил қилиш жуда муҳимдир.

Шунинг учун ҳам мазкур ишда фармакоэпидемиологик усуллар билан Хоразм вилояти аҳолисининг Урганч шаҳрида даволанганлари орасида жигар касалликларини даволашда қўлланилган препаратларнинг самарадорлиги, хавфсизлиги, уларнинг қўлланилиш истиқболлари ҳамда даволашнинг фармакоэкономик асослари аниқланди.

#### **МАТЕРИАЛ ВА УСУЛЛАР**


Хоразм вилояти Урганч шаҳридаги стационарларида гепатобиллиар тизим касаллиги билан даволанган 500 беморнинг касаллик тарихи ўрганилди. Фармакоэпидемиологик усуллар ёрдамида (касаллик тарихидан анкета маълумотларини йиғиш йўли билан) ретроспектив (2005йилдан 2010 йилгача) тарзда беморларнинг касаллик тарихи ўрганилди. Анкетага Ўзбекистонда амалий тиббиётда ишлатилиб келинаётган 36 тадан ортиқ препарат киритилди. Ўтказилаётган терапияда гепатопротекторларнинг қўлланганлиги, уларнинг эффе́ктивлиги ва хавфсизлигига катта эътибор қаратилди. Ҳамма маълумотлар статистик таҳлил қилинди.

#### **НАТИЖАЛАР ТАХЛИЛИ**

Ўрганилган натижаларга кўра 500 та беморнинг 195 нафари эркаклар (39%) ва 305 нафари аёллар (61%) ташкил этди. Шулардан 269 нафари (54%) сахар, ва 231 нафари (46%) қишлоқда яшовчилар. Ушбу беморларнинг сурункали гепатит ва гепатохолицитит билан касалланганлари 223 та (45%), жигар циррози ва сурункали гепатитни жигар циррозига ўтиш даври билан 200 та (40%), қолган 77 та бемор (15%) сурункали холецистит билан касалланганларни ташкил қилди. Барча беморларга асосий даво сифатида алоҳида ёки ўзаро қўлланган ҳолда тавсия этилган. Қўшимча даво сифатида оғриқ қолдирувчилар, спазмолитиклар, ўт хайдовчилар, яллиғланишга қарши, иммуностатиклар, глюкокартикоостероидлар, иммуностатиклар ва бошқа препаратлар тавсия этилган.



Беморларнинг хаммасига асосий гуруҳ препаратларидан 18 турдаги гепатопротекторлар хар хил комбинацияда ёки алоҳида тавсия этилган.(диограмма). Дιοграммада энг кўп қўлланилган препаратлар эссенциал ва рибоксин (384 та бемор) эканлиги кўриниб турибди (1 табица). Эссенциал гепатит билан касалланганларнинг 171 нафарида (34,2%), жигар циррози билан 150 нафарида (30%) ва холецистит билан 63 нафар (12,6%) беморда қўлланилган бўлса, Рибоксин гепатит билан касалланганларнинг 180 нафари (36%), жигар циррози билан 153 нафар (30,6%) ва холецистит билан 51 нафар (10,2%) беморларда қўлланилган.



**Диаграмма-1. Ўрганиш учун олинган гепатопротекторлар**

Карсил билан Урсосан 20%дан ортиқ беморларда қўлланилган, шулардан карсил 23,4% (117та бемор) ва Урсосан 21% (105 та бемор). Бу препаратларни касалликлар бўйича кўриб чиқадиган бўлсак, куйидаги тасвиға эға бўламиз, Карсил гепатит билан оғриган беморларнинг 62 нафарида (12,4%), жигар циррози билан 34 нафарида (6,8%) ва холецистит билан 21 нафар (4,2%) беморларда қўлланилган бўлса, Урсосан гепатит билан касалланган беморларнинг 45 нафари (9%), жигар циррози билан 49 нафар (9,8%) ва холецистит билан 11 нафар (2,2%) беморларда қўлланилган.

**Табица-1. Гепатобиллиар тизимдаги хар хил турдаги касалликларда қўлланилган гепатопротекторларнинг нисбати**

№ т/р	Препарат номлари	Жигар циррозид а	Ге-патитд а	Холециститда	Хаммаси бўлиб	Фойизда
1	Эссенциале	150	171	63	384	76,8

2	Рибоксин	153	180	51	384	76,8
3	Карсил	34	62	21	117	23,4
4	Урсосан	49	45	11	105	21,0
5	Сирепар	12	42	16	70	14,0
6	Тиотриазолин	36	19	5	60	12,0
7	Лив-52	9	18	17	44	8,8
8	Эссел форте	12	5	9	26	5,2
9	Бонжигар	6	6	8	20	4,0
10	Липоевая кислота	5	7	5	17	3,4
11	Гепамер	9	4	1	14	2,8
12	Гептрал	8	5	0	13	2,6
13	Гепабене	0	4	0	4	0,8
14	Легалон	1	1	0	2	0,4
15	Гепатофальк-Планта	2	0	0	2	0,4
16	Галстена	0	1	0	1	0,2
17	Калия оротат	0	1	0	1	0,2
18	Эссливер	0	0	1	1	0,2
	Хаммаси:	486	571	208	1265	

Сирепар ва Тиотриазолин 10% дан ортиқ беморларда қўлланилган, шулардан сирепар 14% (70 та бемор) ва Тиотриазолин 12% (60 та бемор) ташкил қилади. Бу препаратларни касалликлар бўйича кўриб чиқадиган бўлсак, Сирепар гепатит билан оғриган беморларнинг 42 нафариди (8,4%), жигар циррози билан 12 нафариди (2,4%) ва холецистит билан 16 нафар (3,2%) беморларда қўлланилган бўлса, Тиотриазолин гепатит билан касалланган беморларнинг 19 нафари (3,8%), жигар циррози билан 36 нафар (7,2%) ва холецистит билан 5 нафар (1%) беморларда қўлланилган. Куйдаги 12 та препарат эса 10% дан кам беморларда қўлланилган.

Шулардан хаммаси бўлиб 1265 та гепатопротекторлар қўлланилган, бу ҳар бир беморга 2,5 та препаратдан тўғри келади. Аммо айрим беморларда 1 та ёки 2 та гепатопротектор қўлланилган бўлса, айрим беморларда 3, 4 ёки 5 препарат бир вақтнинг ўзида қўлланилган.

Ўрганилаётган 36 та гепатопротекторлардан қолган 18 таси сационарлардаги беморларни даволашда умуман қўлланилмаган. Шундай бўлишига қарамасдан врачлар касалликни даволашда яхши натижага эришганлар, бу 1- диограммада аниқ кўрсатилган.

Даволашда 469 нафар беморда (93,8%) яхши натижаларга эришилган, 21 нафар беморда (4,2%) яхши натижалар кузатилмаган яъни ўзгаришсиз ва 3 нафар беморда (0,6%) ўлим билан якунланган (2- диограмма)




Диаграмма-2. Ўтказилган даво натижаси.

Юқоридаги натижалардан келиб чиққан ҳолда Хоразм вилоятида гепатобиллиар касалликлар билан касалланган беморларни даволашда юқорида кўрсатилган 18 та препарат билан даволаш олиб бориш мумкин.

#### ХУЛОСА

1. Хоразм вилоятида гепатобиллиар касалликлар билан касалланган беморлар ичида биринчи ўринда сурункали гепатит ва гепатохолицитит, иккинчи ўринда жигар циррози ва сурункали гепатитни жигар циррозига ўтиши, ҳамда охириги ўринда сурункали холицитит эгаллайди.

2. Хоразм вилояти стационарларида гепатобиллиар касалликлар фармакотерапияси жaxonда тан олинган Гастроэнтрологлар уюшмаси томонидан адекват ифодаланган потологик жараён ва кўрсатмаларга мос келади.

3. Гепатобиллиар тизим касалликларини даволашда врачлар гепатопротекторларни алоҳида ва бир-бири билан ҳар-хил комбинацияда қўллаганлар.

4. Хоразм вилоятида гепатобиллиар касалликлар билан касалланган беморларни гепатопротекторларнинг катта арсеналидан асосан 18 таси қўлланилган

#### Адабиётлар

1. Абдурахманов Д.Т. Хронический гепатит В и D: вопросы патогенеза, диагностики и лечения // Лечебное дело 3.2004 С.22-32.

2. Бекчанова Ю. Х., Исмоилов С. Р. УРГАНЧ ШАҲРИ СТАЦИОНАРЛАРИДА ДАВОЛАНГАН БЕМОРЛАРДА ҚЎЛЛАНИЛГАН ГЕПАТОПРОТЕКТОРЛАРНИНГ РЕТРОСПЕКТИВ ТАҲЛИЛИ //ЎЗБЕКИСТОН ФАРМАЦЕВТИК ХАБАРНОМАСИ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ВЕСТНИК УЗБЕКИСТАНА. – С. 55.
3. Исмоилов, С. Р., Бекчанова, Ю. Х., Рузмаматов, Ш. С., & Рузмаматов, Б. С. (2014). фармакоЭпидемиОлогия гепатОпрОтектОрОв, испОльЗОваннЫх для лечения БОльнЫх в стацИонарах гОрОда ургенча хОреЗмскОЙ ОБласти. *Вісник проблем біології і медицини*, 1(1), 111-116.
4. Минушкин О.Н. Постхолецистэктомный синдром, динамика представлений, диагностика, лечение // Медицинский Совет. 2021;(15):97-103.
5. Основы клинической фармакологии и рациональной фармакотерапии: Руководство для практикующих врачей / Ю.Б.Белоусов, М.В.Леонова, Д.Ю.Белоусов, А.И.Вялков и др. Под общ. ред. Ю.Б.Белоусова, М.В.Леоновой. – М.: Бионика, 2002. – 368 с.
6. Овсянникова О.Н., Звенигородская Л.А. Целесообразность применения таурина в лечении неалкогольной жировой болезни печени. // Эффективная фармакотерапия. 2012; 24:38-43.
7. Оковитый С.В. Шуленин С.Н. Клиническая фармакология гепатопротекторов // *Expert Rev Gastroenterol Hepatol*. 2016;10 (4):517–36.
8. Оковитый С.В. Комбинированные применение гепатопротекторов // *Лечащий врач* 2020 №8 С.38-43.
9. Пиманов С.И., Макаренко Е.В., Солодовникова О.И. Новое руководство Американской коллегии гастроэнтерологов по алкогольной болезни печени в центре внимания-гепетит // *Consilium Medicum* 2018. Том20. №8. С.58-66.
10. Трухан Д.И., Викторова И.А., Сафонов АД. Болезни печени. // СПб.: Фолиант, 2010. С.99-103.
11. Трухан Д.И., Тарасова Л.В., Викторова И.А. Роль врача общей практики в диагностике и лечении неалкогольной жировой болезни печени. // *Справ. врача общей практики*. 2013; 3:С.58-68.
12. Фармакоэкономическая эффективность заместительной терапии различными препаратами панкреатина у больных хроническим панкреатитом с экзокринной панкреатической недостаточностью. / Маев И.В., Кучерявый Ю.А., Оганесян Т.С., Москалева А.Б., и др. // *Фарматека* №13-2010. С.117-123.
13. Хавкин А.И., Комарова О.Н. Нарушение всасывания и перспективы применения жирорастворимых витаминов при болезнях печени // *Экспериментальная и клиническая гастроэнтерология*. 2016. № 7 (131). С.86-94.
14. Clinical and pharmacological audit of medications used in patients with liver cirrhosis at several hospitals in khorezm region / Bekchanova Y.X., Ismoilov S.R., Omonova G.S. et al. // *Journal of Critical Reviews*/ 2020/ P.111-115.
15. Does this patient with liver disease have cirrhosis? / Udell J.A., Wang C.S., Tinmouth J. Fitz.Gerald. J.M. et al. // *JAMA: the journal of the American Medical Association*, 2012, Feb 22, 307 (8): 832-42.
16. Guidelines on the management of ascites in cirrhosis. // Moore K.P., Aithal G.P. October

## ЎРТА ВА ОҒИР ДАРАЖАЛИ ТИРЕОТОКСИКОЗ БЎЛГАН БЕМОРЛАРНИ ДАВОЛАШДА ДИФФЕРЕНЦИАЛ ЁНДАШУВ

Гозибеков Ж.И., Салоҳиддинов Ж.С.

Самарқанд давлат тиббёт университети

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13253133>

**Аннотация:** Диффуз токсик буқокни (Грейвес касаллиги) даволаш усуллари кўриб чиқилади. Оғир даражали тиреотоксикоз бўлган 24 нафар беморнинг таҳлили ўтказилди. Жарроҳлик даволашнинг мақсади, асосий кўрсаткичлари ва усуллари, шунингдек, юзага келиши мумкин бўлган асоратлар батафсил ёритилган. Диффуз токсик буқок билан касалланган беморларни даволаш усуллари кўриб чиқилди.

**Ключевые слова:** Диффуз токсик буқок, Грейвес касаллиги, хирургик даволаш, дискрет плазмаферез, консерватив терапия.

## ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЙ ПОДХОД К ЛЕЧЕНИЮ БОЛЬНЫХ ТИРЕОТОКСИКОЗОМ СРЕДНЕЙ И ТЯЖЕЛОЙ СТЕПЕНИ

**Аннотация:** Рассмотрены методы лечения диффузного токсического зоба (болезни Грейвса). Проведен анализ 24 отечественных источников, посвященных этой проблеме. Подробно освещены цель, основные показания и методы хирургического лечения, а также возможные осложнения. Рассмотрены сравнительные характеристики методов лечения больных с диффузным токсическим зобом.

**Ключевые слова:** Диффузный токсический зоб, болезнь Грейвса, хирургическое лечение, дискретный плазмаферез, консервативная терапия.

## DIFFERENTIAL APPROACH TO THE TREATMENT OF PATIENTS WITH MODERATE AND SEVERE THYROTOXICOSIS

**Abstract:** The methods of treatment of diffuse toxic goiter (Graves' disease) are considered. An analysis of 24 domestic and foreign sources devoted to this problem was carried out. Detailed treatment, main indications and methods of surgical treatment, as well as additional explanations. Comparative characteristics of treatment methods for patients with diffuse toxic toothache.

**Keywords:** Diffuse toxic goiter, Graves' disease, surgical treatment, discrete plasmapheresis, conservative therapy.

## ДОЛЗАРБЛИГИ

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотларига кўра “дунёда қалқонсимон без патологияси билан 750 миллиондан ортиқ одам касалланган, қалқонсимон без касалликлари (ҚБ) орасида диффуз токсик буқок (ДТБ) ва аралаш (АТБ) токсик буқокли беморлар биринчи ўринни эгаллайди”. Ҳозирги кунда буқокнинг токсик шаклларига диагноз қўйиш сезиларли қийинчиликларни келтириб чиқармайди, асосан ноинвазив текшириш усуллари пайдо бўлиши туфайли, уларни комплекс қўлланилишининг информативлиги 95-100% га етади. Буқокнинг токсик шакллари даволаш хирургиянинг мураккаб муаммосидир. Қалқонсимон бездан турли хил усулларда тугунларини олиб ташлаш операцияси ва струмэктомия энг кенг тарқалган усули бўлиб, у буқокнинг токсик шакллари кўпгина (90,6%) ҳолларида амалга оширилади. Натижада операциядан сўнги асоратларнинг кўпайиши, операциядан кейинги тиреотоксикознинг қайталаниши (15-44%)

ва операциядан кейинги гипотиреоз (25-63%) бу оммавийлашган жарроҳлик тактикасининг самарадорлиги ва ишончлилигини етишмаслиги тўғрисида гувоҳлик беради. Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, ушбу касалликнинг олдини олиш ва даволашнинг маълум усулларини такомиллаштириш ҳамда янги самарали чораларини ишлаб чиқиш зарурлиги аён бўлди.

Жаҳон амалиётида, касалликнинг оғирлик даражасига кўра тугунли буқоқдан тортиб то қалқонсимон без ракигача (ҚБР) коллоид буқоқнинг қалқонсимон бездаги морфофункционал ўзгаришларга таъсирини ўрганишга, касалликнинг оғирлигини баҳолашга қаратилган бир қатор илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. ҚБ нинг сақлаб қолинган тўқималарининг морфофункционал ҳолати ва ҳажмини баҳолаш масалалари алоҳида аҳамиятга эга. Шунингдек тиреотоксикознинг ўрта ва оғир даражали кечишида даво турини танлай олиш замонвий тиббиётда муҳим аҳамият касб этади.

**Текширишнинг мақсади.** Тиреотоксикознинг ўрта ва оғир даражаси бўлган беморларни операцияга тайёрлашда плазмаферез муолажаасининг натижаларини баҳолаш.

### ТЕКШИРИШ УСУЛЛАРИ

Буқоқнинг токсик шакли бўлган беморларни операцияга тайёрлашнинг мураккаблиги ўрганилиб чиқилганда, 112 беморнинг В.Г. Баранов (1956) таснифи бўйича жисмоний мезонларга асосланган ҳолда тиреотоксикоз оғирлик даражаси баҳоланди. Шу билан бирга, 35 (31,2%) беморда тиреотоксикознинг енгил даражаси, 52 (46,4%) беморда ўртача, 25 (22,3%) беморда оғир даражаси аниқланган (1-жадвал).


**1-жадвал. Беморларда тиреотоксикознинг оғирлик даражасига кўра тақсимланиши (В.Г. Баранов бўйича, 1956 йил)**

Тиреотоксикознинг оғирлик даражасига кўра	Текшириш гуруҳи				Жами	
	Асосий гуруҳ		Таққослаш гуруҳи			
	мутлоқ.	%	мутлоқ.	%	абс.	%
Енгил даражаси	17	28,3	18	34,6	35	31,2
Ўрта оғир даражаси	30	50,0	22	42,3	52	46,4
Оғир даражаси	13	21,7	12	23,1	25	22,3
Жами	60	100	52	100	112	100

Ушбу 112 бемордан 24 (21,4%) нафарида яъний оғир даражали тиреотоксикоз хуружини ўтмаслиги ёки консерватив даволанишнинг асоратлари, узок муддатли консерватив давонинг самарасизлиги билан боғлиқ ҳолат кузатилди.

Шунингдек консерватив давонинг салбий натижалари бўлган 24 беморнинг 10 нафари (41,7%) таққослаш гуруҳидан, 14 нафари (58,3%) эса асосий гуруҳдан эди (1-расм).





**1-расм. Стационаргача бўлган босқичда буқоқнинг токсик шакллари бўлган беморларда консерватив терапиянинг салбий оқибатлари**

Стационаргача бўлган босқичда буқоқнинг токсик шакллари бўлган беморларда консерватив терапиянинг натижалари таҳлили ўтказилди. Назоратдаги 8 беморда - консерватив терапия самара бермади, 5 нафар беморда дори препаратлари таъсирида ўтмади, 3 нафар беморда асоратлар (лейкопения, ошқозон-ичак тракти патологияси) кузатилди.

Касалхонага ётгунгача бўлган босқичда консерватив даво олган беморлардан анамнез тўплаш тиреостатиклар: мерказолил, тиразол, преднизолон, дексаметазон билан ўтказилганлигини кўрсатди. Биз касалликнинг барқарор ремиссияга эришишга имкон берадиган дозада препаратни қабул қилиш давомийлигига қараб консерватив даволаниш пайтида асоратларнинг частотасини таҳлил қилдик.

Асосан асоратлар узок муддатда консерватив даво олган беморларда кузатилган бўлиб бу самарасиз бўлишига қарамай, дори препаратлари қўлланилган. Таққослаш гуруҳидаги 10 нафар беморда медикаментоз терапиянинг салбий натижаларига қарамасдан, жарроҳлик ёндашуви ўтказилди. Операциядан олдинги тайёргарлик самарасизлиги сабабли, ДТБ билан касалланган беморларда 3 та (таққослаш гуруҳидаги беморларнинг 5,8%) ҳолатда операция давомида оғир қон кетиш қайд этилган ва операциядан кейинги дастлабки даврда беморларнинг 4 (7,7%) нафарида ўртача ва оғир даражали тиреотоксик криз юзага келган.

Ушбу ҳолатларда биз буқоқнинг токсик шакллари бўлган беморларни операциягача тайёрлаш натижаларини яхшилашда янги ечимларни таклиф қилдик.

Таққослаш гуруҳидаги беморлардан фарқли ўларок, асосий гуруҳдаги тиреотоксикоз оғир даражаси бўлган беморларни консерватив даволаш қарши кўрсатма саналиб ушбу ҳолатда плазмаферез (ПФ) плазманинг билвосита электрокимёвий оксигенацияси (БЭХО) билан натрий гипохлорит ёрдамида қўшимча озонлаш ва кейинчалик детоксикацияланган плазмани қайта қуйиш мақсадга мувофиқ бўлади. Бу бутун организмда марказий қон айланиш, нафас олиш, қоннинг транспорт хусусиятлари, периферик қон айланишининг яхшиланиши ҳамда қалқонсимон гормонларининг пасайиши билан намоён бўлади.

Қонга таъсир қилганда озоннинг биологик таъсири етарлича паст концентрацияда намоён бўлади  $[O_3] = 8-200 \text{ MKT } O_3/lO_2$  оралиғида ва 10 дақиқа кифоя қилади, плазмани

озон билан тўйинтириш мақсадида плазма мавжуд бўлган флаконга босим остида озон-кислород ва газ аралашмаси юборилади. Бундан ташқари озон билан қўшимча таъсир этиш натижасида плазма тиниш вақти 4-16 соатдан (ўртача 8-12 соат) 3-4 соатгача қисқаради.

Беморларда даволовчи плазмаферез ўтказишда 1200-1400 мл ҳажмда плазмаэкстракция қилинади. Эксфузияланган қон плазмаси белгиланган ҳажмдаги 0,9% NaCl эритмаси солинган асептик шароитда тозаланган стерил флаконларга йиғилади.

Лаборатория текширишларидаги илмий тажриба (эксперимент) шуни кўрсатдики, токсик плазма таркибий қисмларнинг оксидланиш жараёни одатда инкубацион 3-4 соатларга бориб тугайди. 4 соатдан кейин 500 мл шиша флакондан плазмаэкстрактор ёки аспирация қилиш йўли билан олинган чўкма (50-70) мл олиб ташланди (2-расм).



а) б) в)

**2<sup>а-б-в</sup>-расм. Плазмани реинфузияга тайёрлаш босқичлари:**

**а) токсик чўкма; б) токсинлардан ажратилиб олинган плазма;**

**в) аутоплазмани қайта қуйиш**

Беморларнинг аҳволи яхшиланиши мобайнида периферик қон кўрсаткичлари нормаллашгандан сўнг, оператив ёндашув ўтказилди.

Юқорида айтганимиздек узоқ муддатли консерватив даво (тиреостатиклар ҳамда гормонал препаратларни қўллаш) ҳам самарасиз эканлигини аниқ кўрсатмоқда. Бундан ташқари, беморлардаги хуруж дори таъсирида ўтмаслиги, қон ва ошқозон-ичак тракти томонидан асоратларининг ривожланишига олиб келди. Беморларни дискрет плазмаферездан фойдаланиб операцияга тайёрлаш самарали бўлди натижада операция вақтида ва операциядан кейинги даврда кузатилиши мумкин бўлган асоратлар бартараф этилди.

Тиреотоксикознинг оғир даражаси билан плазмаферез қабул қилган (14 бемор) беморлар гуруҳи операциядан олдинги тайёргарлик самарадорлиги мезонлари, консерватив тайёрланган (10 бемор) беморларга нисбатан операциядан олдин, операция пайтида ва ундан кейин артериал қон босими ва пульс кўрсаткичлари солиштирилди. АҚБ кўтарилиши ва юрак уришининг тезлашиши ҳар бир бемор учун индивидуал меъёр билан таққослаганда, биз ушбу касаллик туфайли келиб чиққан гипертония ва тахикардияни хуруж деб ҳисобладик. Беморни тайёрлаш усулига қараб операциядан олдинги босқичда ва операция

босқичларида қон босими ва пульс кўрсаткичлари динамикада ижобий томонга ўзгариб борди.

Консерватив терапиянинг самарасизлиги бўлган барча беморлар қабул қилинганда гипертония ва тахикардия белгилари қайд этилган, таққослаш гуруҳида 3 нафар беморда гипертония, 4 нафар беморда ривожланган тахикардия бўлган.

ПФ дан сўнг, БЭКО плазмаси билан биргаликда натрий гипохлорит билан қўшимча озонлаш ва кейинчалик детоксикация қилинган плазманинг реинфузияси билан асосий гуруҳдаги 14 нафар беморда тахикардия (1 дақиқада 90 мартагача) ва фақат 2 нафар беморда гипертония сақланиб қолди (2-жадвал).

**2- жадвал. Операциядан олдинги (операция арафасида) тайёргарлик самарадорлиги**

Таққослаш гуруҳи	Ўрганилган самара (натижа), тахикардия ва гипертония		
	Самарасиз	Самарали	Жами
Асосий гуруҳ (плазмаферез)	2	12	14
Таққослаш гуруҳи (консерватив тайёрлаш)	6	4	10
Жами беморлар	8	16	24

Операция пайтида ПФ ва консерватив тайёрланган беморларнинг натижалари аниқ рақамларда 2-жадвалда келтирилган. Ушбу маълумотларга кўра, биз ПФ буюрилган беморлар гуруҳида операциядан олдинги тайёргарлик самарадорлигининг асосий кўрсаткичларини медикаментоз тайёрлаш ўтказилган таққослаш гуруҳига нисбатан ҳисоблаб чиқдик. Жадвалда келтирилган маълумотлар ПФ билан тайёрланган беморларда қалқонсимон безни резекция қилиш пайтида консерватив йўл билан тайёрланган беморларга нисбатан салбий натижалар жуда пастлигини кўрсатди (3-жадвал).

**3- жадвал. Операциядан олдинги тайёргарлик самарадорлиги (операция пайтида)**

Таққослаш гуруҳи	Ўрганилган самара (натижа), тахикардия ва гипертония		
	Самарасиз	Самарали	Жами
Асосий гуруҳ (плазмаферез)	2	12	14
Таққослаш гуруҳи (медикаментоз тайёрлаш)	6	2	10
Жами беморлар	8	14	24

Ўтказилган тадқиқот натижаларига кўра буқоқнинг токсик шакллари бўлган беморларни операцияга тайёрлашда 5 тадан 7 тагача плазмаферез сеансларининг ўзи етарли бўлиб ушбу муолажаалар сони беморларимизни даволашда ҳам қўлланма бўлиб хизмат қилди.

**ХУЛОСА**

Плазмаферез муолажаасининг юқори самарадорлиги плазмани натрий гипохлорит билан билвосита электрокимёвий кислород ёрдамида қўшимча озонлаш ва кейинчалик детоксикацияланган плазмани қайта қуйиш орқали буқоқнинг токсик шакллари бўлган беморларни операциягача тайёрлашда, унинг касаллиги дорилар таъсирида ўтмаганда,

гормонал қарамлилик шу билан бир қаторда қўшимча касалликлар билан асоратланган беморларда исботланган.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Кондратова О. А. и др. Выбор тактики лечения диффузно-токсического зоба у подростков-анализ клинического случая //Школа Науки. – 2020. – №. 11. – С. 25-28.
2. Толеутаев, Т. А. (2021). Современные методы хирургического лечения больных с диффузно-токсическим зобом. *Global Science and Innovations: Central Asia* (см. в книгах), 2(12), 11-13.
3. Пиксин И.Н., Давыдкин В.И., Вилков А.В., Голубев А.Г., Ключев В.И., Кечайкин А.Н. Хирургическая тактика при доброкачественных новообразованиях щитовидной железы. *Научный альманах*. 2015;(9):969-73. <https://doi.org/10.17117/na.2015.09.969>
4. Стяжкина С.Н., Леднева А.В., Порываева Е.Л. Оценка качества жизни пациентов с диффузным токсическим зобом после проведенной тиреоидэктомии. *Креативная хирургия и онкология*. 2019;9(1):26-30. <https://doi.org/10.24060/2076-3093-2019-9-1-26-30>
5. Давлатов С. и др. Анализ результатов хирургического лечения больных узловыми образованиями щитовидной железы //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2016. – №. 3 (89). – С. 21-24.
6. Ушаков А.В. Классификации доброкачественных состояний щитовидной железы. *Клинический диагноз*. М.; 2016. 235 с.
7. Eshonkhodjaev O.D. et al. Evaluation of the Effectiveness of Anti-adhesive Coating on a Model of a Lung Wound in an Experiment //JournalNX. – Т. 7. – №. 02. – С. 87-98.
8. Wu L, Wang W, Leng Q, Tang N, Zhou N, Wang Y, Wang DW. Focus on Autoimmune Myocarditis in Graves' Disease: A Case-Based Review. *Front Cardiovasc Med*. 2021 Jul 7; 8:678645. doi: 10.3389/fcvm.2021.678645.
9. Yasuda S, Suzuki S, Yanagisawa S, Morita H, Haisa A, Satomura A, Nakajima R, Oikawa Y, Inoue I, Shimada A. HLA typing of patients who developed subacute thyroiditis and Graves' disease after SARS-CoV-2 vaccination: a case report. *BMC Endocr Disord*. 2023 Mar 7;23(1):54. doi: 10.1186/s12902-023-01287-5. PMID: 36879263; PMCID: PMC9988595.

## ГРЫЖИ ПЕРЕДНЕЙ БРЮШНОЙ СТЕНКИ И АНДРОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ. ВЗАИМОСВЯЗЬ, НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЭПИДЕМИОЛОГИИ, ЭТИОЛОГИИ И СИМУЛЬТАННЫХ ОПЕРАЦИЙ

Зохидова Саноат Хомидовна

Самаркандский государственный медицинский университет, Самарканд, Узбекистан

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12789447>

**Аннотация:** В статье приводится обзор данных отечественной и мировой литературы о патофизиологической и этиологической связи образования грыж передней брюшной стенки с заболеваниями предстательной железы и органов мошонки (варикоцеле, крипторхизм). По данным разных авторов, частота возникновения паховых грыж после операции на предстательной железе встречается в 4,8–23,9 %. Выполнение видеоэндоскопических операций значительно снижает риск возникновения паховых грыж. Тщательная диагностика позволяет выявить субклинические формы грыж передней брюшной стенки и снизить долю послеоперационных грыж.

**Ключевые слова:** грыжа передней брюшной стенки, андрологические заболевания, предстательная железа, варикоцеле, крипторхизм, видеоэндоскопические операции

## ANTERIOR ABDOMINAL WALL HERNIAS AND ANDROLOGICAL DISORDERS. RELATIONSHIP, SOME PROBLEMS OF EPIDEMIOLOGY, AETIOLOGY, AND SIMULTANEOUS SURGERIES

**Abstract:** The article analyzes data of Russian and international literature on pathophysiological and aetiological relationship between formation of anterior abdominal wall hernias and diseases of the prostate and scrotal organs (varicocele, cryptorchidism). According to data from various authors, frequency of inguinal hernia development after prostate surgeries is 4.8–23.9 %. Videoendoscopic surgeries significantly decrease the risk of inguinal hernias. Comprehensive diagnosis allows to detect subclinical forms of anterior abdominal wall hernias and decrease the number of postoperative hernias.

**Keywords:** anterior abdominal wall hernia, andrological disorders, prostate, varicocele, cryptorchidism, videoendoscopic surgeries

### ВВЕДЕНИЕ

Возникновение грыж живота является сложным патологическим процессом, происходящим в результате взаимодействия целого ряда этиологических факторов и патогенетических механизмов. Некоторые из этих факторов и механизмов считаются общими для возникновения грыж и некоторых андрологических заболеваний.

По определению S. Ravanbakhsh (2015), такие факторы, как снижение индекса массы тела, преклонный возраст, мужской пол, европеидная раса, семейный анамнез грыж, курение, алкоголизм, высокий индекс коморбидности, повышают вероятность образования паховых грыж, а ожирение является фактором риска возникновения осложнений [1]. О.Й. Усенко и соавт. (2015) считают, что ожирение является основной причиной морфофункциональной недостаточности мышечно-апоневротических структур [2]. При ожирении не только повышается внутрибрюшное давление, но и возрастает активность симпатической нервной системы, влияющей на эндокринный статус (снижается уровень тестостерона), что приводит к воспалению и перекисному окислению, а также к инсулинорезистентности и нарушению секреции адипокинов. Эти факторы способствуют



развитию доброкачественной гиперплазии предстательной железы (ДГПЖ) и рака предстательной железы (РПЖ) [3].

В формировании паховых грыж важную роль играет целый ряд биомеханических факторов. Один из них повышение внутрибрюшного давления, которое регистрируют при ДГПЖ или РПЖ [4, 5]. Поэтому многие авторы считают, что при сочетании этих заболеваний с вентральной или паховой грыжей необходимо проведение одномоментного оперативного вмешательства [5–9].

Более 30 % пациентов с грыжей имеют различные признаки дисплазии соединительной ткани (ДСТ), что необходимо учитывать при выполнении оперативного вмешательства. Выявленные признаки ДСТ требуют углубленного предоперационного обследования пациентов в целях выявления висцеральных проявлений ДСТ для предотвращения осложнений со стороны других органов и систем [10, 11].

S. Dzheng и S. P. Doblovolski (2014), обследовав 78 пациентов с рецидивными паховыми грыжами, пришли к выводу, что паховая грыжа является не местной болезнью, а лишь местным признаком системного заболевания [12].

Наличие у пациентов ДСТ приводит к снижению уровня качества жизни в послеоперационном периоде [13].

Таким образом, основополагающими патогенетическими и этиологическими факторами грыжеобразования и возникновения уроандрологических заболеваний (варикоцеле, нефроптоз, крипторхизм, киста почки, рак почки, РПЖ и др.) являются ожирение, повышение внутрибрюшного давления и развитие недифференцированной ДСТ.

#### **МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**

По данным литературы, в последние годы зарегистрировано увеличение частоты образования паховых грыж после операции на предстательной железе. Некоторые авторы связывают это со следующими факторами:

- повреждение поперечной фасции;
- растягивание раны ранорасширителями;
- подтягивание за семявыносящий проток во время операции;
- рассечение внутритазовой фасции, ослабляющее поперечную фасцию;
- нарушение функции клапанного механизма вследствие разрушения мышц передней

брюшной стенки. Проведенный S. Zhu и соавт. (2013) метаанализ показал, что у 13,1–18,7 % пациентов после радикальной простатэктомии традиционным доступом и у 4,8– 8,6 % пациентов после лапароскопической радикальной простатэктомии в течение 2 лет развивается паховая грыжа [14].

В 2004 г. K. Ichioka и соавт. оценили частоту возникновения и изучили факторы риска образования паховых грыж после позадилоной простатэктомии, тазовой лимфодиссекции и тотальной цистэктомии. В исследование были включены данные 155 пациентов после позадилоной радикальной простатэктомии, 35 больных после тазовой лимфодиссекции и 56 – после тотальной цистэктомии. Результаты исследования показали, что после 2 лет наблюдения у 33 (21,3 %) пациентов группы радикальной простатэктомии, у 4 (11 %) больных группы тазовой лимфодиссекции и у 3 (5,4 %) пациентов группы тотальной цистэктомии сформировалась паховая грыжа. Авторы считают, что урологи должны помнить о том, что паховая грыжа является одним из основных осложнений радикальной простатэктомии. При проведении предоперационного обследования особое внимание следует уделять осмотру паховых промежутков [9]. В целях определения частоты



развития паховых грыж после эндоскопически ассистированной позадилонной радикальной простатэктомии и вмешательств обычным доступом Т. Koie и соавт. (2008) ретроспективно проанализировали данные 347 пациентов, прооперированных по поводу РПЖ. Обе группы были сопоставимы. Большинство больных в анамнезе имели вмешательства на органах брюшной полости. В 75 случаях операции были выполнены традиционным доступом (1-я группа), в 272 – эндоскопически ассистированным (2-я группа). У 29 (38,7 %) пациентов 1-й группы и у 8 (2,9 %) больных 2-й группы в последующем диагностировали образование паховой грыжи. На основании полученных результатов авторы пришли к выводу, что паховая грыжа чаще развивается после простатэктомии, выполненной открытым доступом [15].

В 2009 г. Н. Sekati и соавт. ретроспективно проанализировали истории болезни 395 пациентов, прооперированных в клинике Chibaken Narashino Hospital с апреля 2000 г. по март 2007 г. Позадилонная радикальная простатэктомия была проведена 155 пациентам, 35 – открытая простатэктомия и 205 – трансуретральная резекция. Развитие паховой грыжи наблюдали у 23,9 % пациентов группы позадилонной простатэктомии, у 18,9 % – после открытой простатэктомии и у 2 % – после трансуретральной резекции. Авторы считают, что первые 2 вида вмешательства имеют повышенный по сравнению с резекцией риск развития послеоперационной паховой грыжи [16].

По данным L. Stranne и P. Loddin (2011), к важным факторам риска развития паховых грыж после простатэктомии, кроме преклонного возраста, следует отнести также низкий индекс массы тела, субклиническую форму паховой грыжи, которая до операции не была диагностирована [17].

Установлено, что от 5 до 10 % пациентов, которым необходимо проведение радикальной простатэктомии, имеют сопутствующую паховую грыжу. Одномоментная пластика паховых грыж во время радикальной позадилонной простатэктомии описана при вмешательствах как традиционным, так и лапароскопическим доступом [18]. Разные авторы рекомендуют различные методики пластики паховых промежутков при выполнении операции на предстательной железе. Е. Granados и соавт. (1998) наблюдали 56 пациентов, которым был установлен диагноз аденомы предстательной железы в сочетании с паховой грыжей. Для восстановления пахового канала в отношении 35 пациентов применяли пластику по методу Bassini, у 18 – по методу MacWay, у 3 – ушивание внутреннего пахового кольца из разреза по Пфанненштилю. В 15 (28,8 %) случаях в послеоперационном периоде был зарегистрирован рецидив грыжи [19].

Д.Ю. Пушкарь и соавт. в 2010 г. проанализировали результаты лечения 32 пациентов с диагнозом РПЖ и паховой грыжи, которым выполнили одновременно радикальную позадилонную простатэктомию и пластику паховой грыжи. В 28 наблюдениях пластика была проведена с помощью протезирующей сетки через уже имеющийся нижнесрединный операционный доступ. Авторы считают, что использование предбрюшинного доступа патогенетически наиболее оправданно и позволяет добиться наилучших результатов с минимальными негативными послеоперационными последствиями [20].

По мнению многих зарубежных коллег, проведение одновременной радикальной позадилонной простатэктомии с протезированием пахового канала из единого модифицированного разреза по Пфанненштилю является эффективным и безопасным [5, 21]. А.Б. Сипенко и соавт. (2006) [22], а также R. Bittner считают, что пациентам с

сопутствующей патологией, которым необходимо выполнение симультанной операции, предпочтение следует отдавать лапароскопической преперитонеальной пластике по Corbit.

T. Gozen и соавт. (2014) описали случай проведения экстраперитонеоскопической простатэктомии и одномоментной интраперитонеоскопической пластики паховой грыжи с хорошим результатом [23].

Таким образом, одномоментную операцию на предстательной железе и паховых промежутках лучше всего выполнять традиционным видеоэндоскопическим доступом. Однако в связи с высоким процентом возникновения паховых грыж после операции на предстательной железе необходимо искать альтернативные методы диагностики субклинических форм паховых грыж и методы их коррекции.

Чаще всего грыжи передней брюшной стенки сочетаются с крипторхизмом, реже – с варикоцеле. Крипторхизм – это экстрамошоночное расположение яичка, которое наблюдается у 3 % доношенных новорожденных мальчиков и у 0,18–3,60 % всего мужского населения. Диагностика и лечение брюшного крипторхизма остается одной из сложных проблем не только в детской, но и во взрослой урологии [24].

В связи с тем, что вагинальный отросток брюшины при крипторхизме почти всегда остается необлитерированным, в 25–71 % случаев регистрируют паховую грыжу и патологию придатков яичка. R. Kasser и соавт. (2014) считают, что хирург при проведении оперативного вмешательства по поводу паховой грыжи всегда должен помнить о том, что у таких пациентов часто встречается неопущение яичка [25].

Диагностика брюшного крипторхизма основывается главным образом на данных анамнеза, физикальных, инструментальных, аппаратных, гормональных и морфологических исследований. Среди аппаратных методов наиболее достоверными и доступными являются ультразвуковое исследование, диагностическая достоверность которого достигает 88 %, и магнитнорезонансная томография [26].

В.Н. Степанов и соавт. в 2002 г. описали лапароскопическое удаление яичка у пациентов с абдоминальным крипторхизмом. У всех больных была выявлена сочетанная патология (паховая грыжа, врожденный порок сердца, диспластическая правая почка). У пациентов с паховой грыжей ушивали внутреннее паховое кольцо. Авторы считают, что лапароскопические операции позволяют не только оценить состояние и месторасположение яичка, точнее выполнить манипуляцию, но и проводить коррекцию других аномалий развития органов [27].

По определению С. Sahin и соавт. (2003), эффективными и безопасными методами лечения пациентов при сочетании крипторхизма с паховой грыжей являются лапароскопическая орхэктомия и герниопластика сетчатым имплантатом [28].

В 2015 г. Z. Long и соавт. ретроспективно проанализировали 291 случай орхэктомии, выполненной в различных возрастных группах пациентов. У 20 больных была диагностирована сопутствующая паховая грыжа. Основными причинами орхэктомии у пациентов в возрасте 0–25 лет были перекрут яичка (45,8 %), крипторхизм (32,5 %) и опухоли яичек (16,9 %), в возрасте 26–50 лет – опухоли яичек (42,4 %), крипторхизм (25,9 %) и туберкулез (10,6 %), в возрасте 51–75 лет ведущей причиной проведения орхэктомии был РПЖ. Таким образом, в последние годы основным показанием к выполнению орхэктомии являются опухоли яичка и РПЖ [29].

M. Mahboubi и соавт. (2014), изучив наиболее распространенные факторы риска развития мужского бесплодия среди 268 иранских мужчин, установили, что варикоцеле и

